

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VAO'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLIT UNIVERSITETI

Tarix fakulteti

II kurs 22 guruhtarixbo'lim

Bo'riyeva Dilnoza

Tarixiy O'lkashunoslik fanidan

KURS ISHI

**Mavzu: Antropologik va etnologik ma'lumotlarning o'lka tarixini
o'rganishdagi ahamiyati**

Bajardi:

Bo'riyeva Dilnoza

Qabul qildi: t.f.n. M. Sohibova

Qarshi-2012 y

Mavzu: Antropologik va etnologik ma'lumotlarning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati

Reja:

Kirish

1. Antropologiya va etnologiya fanlari va tadqiqot ob'ektlari.

2. O'zbekistonning qadimgi odam tarqalgan hudud ekanligi va Selung'ur, Teshiktosh, Samarqand topilmalari.

3. O'zbekiston hududida zamonaviy odamlarning paydo bo'lishi va voha bo'ylab tarqalishi. Neolit-eneolit va bronza davrlari dehqonchilik va chorvador qabilalari.

4. O'rta Osiyodagi etnik guruhlar to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlar.

5. O'rta Osiyo hududida asosiy xalqlarning va etnik guruhlarining tarqalishi va tillari. O'zbek xalqi shakllanishining nihoyasiga yetishi.

Xulosa

Odamning kelib chiqishi va rivojlanishi masalasi bilan antropologiya fani shug'ullanadi. Antropologiya uch asosiy bo'limga bo'lib o'rganiladi: 1) morfologiya; 2) antropogeniya yoki antropogenez; 3) irqshunoslik yoki etnik antropologiya. Morfologiya odamning jismoniy tuzilishidagi belgilarning yosh, jins, kasb va tashqi sharoitga qarab o'zgarishini o'rganadi; antropogeniya (antropogenez) odam jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyati, tili, shuningdek jamiyatning dastlabki rivojlanishi jarayonini o'rganadi; irqshunoslik irqlarning sinfiy tasnifi, irqlarning geografik jihatdan tarqalganligi, irqlarning shakllanish tarixi bilan shug'ullanadi.

Paleoantropologiya qadimgi odam qoldiqlarini o'rganib, muayyan davrdagi odam-larning fiziologik tiplari haqida tasavvur hosil qilishda, mazkur fiziologik tiplarning o'rganishida turli ijtimoiy va tabiiy sharoitlarning ta'siri masalalariga oydinlik kiritadi. Umuman olganda, bugungi kunda olimlar odamning paydo bo'lishini ilk paleolit davridan boshlab, so'nggi paleolitga kelib odamning antropologik va tarixiy rivojlanishi nihoyasiga yetib, zamonaviy qiyofadagi odamning (Homo Sapiens) qaror topishi bilan tugagan. Odamning paydo bo'lishi tarixiga qiziqish qadimdan, antik davrdan boshlanganligini ko'rish mumkin. Aristotel mazkur masalani yechishga harakat qilgan olimlardan biridir. Aynan "antropologiya" atamasini ham Aristotel ilk marta odamning kelib chiqishini o'rganuvchi fanga nisbatan ishlatgan.

XVIII asrdan boshlab odamning kelib chiqishi masalalarga qiziqish orta borgan. Fransuz tabiatshunos olimi Jorj Lui Leklerk Byuffon (1707-1788) inson bilan hayvonot olami o'rtasida qandaydir o'tib bo'lmas to'siq borligini taxmin qilgan. 1735 yilda shved tabiatshunos olimi Karl Linney (1707-1778) o'simlik va hayvonot olamini sistemasini tuzgan va insonni "Birinchi qator" ga qo'ygan. 1758 yilda u o'z sistemasiga o'zgartirish qilib, unga primatlar guruhini – Ordo primates (ya'ni birinchi yoki boshlang'ich ma'nosida) kiritib, ularni to'rt qismga bo'ladi: 1) Homo – odam; 2) Simia – maymun; 3) Lemur – lemur (primatlar guruhiga kiruvchi chala maymunlar oilasi); 4) Vesputilio – ko'rshapalak. Homo guruhini u yana ikki guruhga bo'ladi: 1) sapiens – "kunduzgi odam" o'zining "joyiga nisbatan" madaniyati bilan ajralib turgan. 2) Troglodytes (troglodit) – "kechki odam", "o'rmon odami", "Orangutang".

Shu tariqa ilk marta hayvonot olamida odam o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, "Homo sapiens" (aql-idrokli odam) atamasi paydo bo'lib, bugungi kunda ham fanda ilmiy termin sifatida ishlatib kelinmoqda.

Karl Linneydanda aniq isbotni frantsuz olimi Jan Batist Lamark (1744-1829) bergan. Uning fikriga ko'ra, o'ta rivojlangan maymunning bir turi o'sha davrda qandaydir tabiiy ta'sir ostida daraxtda yashash qobiliyatini yo'qotib, ikki oyoqda tik yura boshlagan. Ular o'zlari uchun yemish izlab tanlagan holda oziqlanishgan. Biroq uning bu fikri o'sha davrda o'z tasdig'ini topmaydi.

Evolutsion nazariyaning tan olinishi Charlz Darvin (1809-1882) nomi bilan bog'liqdir. 1859 yilda Darvin o'zining "Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning kelib chiqishi" asarida antropogenez jarayoni haqida fikr yuritadi. 1871 yilda "Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish" asarida esa yanada aniq dalillar bilan vaqt, davrlar o'tishi bilan bosqichma-bosqich

odam bugungi ko'rinishga kelganligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, Afrika ilk odamzod paydo bo'lgan hudud hisoblanadi.

Umuman olganda Ch.Darvin ilgari surgan g'oya bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Antropologik topilmalar XIX asrning 40-yillaridan topila boshlangan. 1848 yilda Ispaniyaning Gibraltar qoyasidan ishchilar odam bosh chanog'ini topib oladilar. Biroq bu topilma haqidagi ilk ma'lumot 1864 yilga kelibgina G.Besk tomonidan matbuotda e'lon qilinadi.

1856 yilda Germaniyaning Dyusseldorf hududiga yaqin Neander vodiysidagi (Neandertal) g'ordan Gibraltardan topilgan suyakka o'xshash bosh chanog'i topiladi va tezda butun jahonga ma'lum bo'ladi. Uni paleontolog Fulrod o'rganadi.

1868 yilda Fransiyaning Kro-Manon g'oridan so'nggi paleolitga mansub odam suyagi qoldiqlari topiladi (yevropeoid irqiga mansub xususiyatlar mavjud).

Golland vrachi va anatomi Ernest Dyubua 1890-1892 yillarda Yava orolida antropoid va neandertallar oralig'ida mavjud bo'lgan odam turiga mansub suyak qoldiqlarini topadi. Skeletini top'liq topib, qayta tiklashga muyassar bo'lgan olim uni tik ikki oyoqda yurgan eng qadimgi odam ekanligini ta'kidlaydi va uni "Pitekantropus erektus" – "Tik yuruvchi maymunsimon odam" deb ataydi.

1901 yilda Italiyaning Grimaldi g'oridan odam suyagi qoldig'i topiladi (negroid irqiga mansub xususiyatlar mavjud).

Keyingi tadqiqotlar jarayonida pitekantropga tegishli suyak qoldiqlari ko'plab topila boshlandi.

1907 yilda Germaniyaning Mauer qishlog'ida, Geydelbergdan 10 km janubda ishchilar qazilma odam suyagi qoldiqlarini topib olishadi. U fanda geydelberg odami nomi bilan mash'hur. Olimlar uni pitekantrop va neandertal turlari oralig'idagi tipiga mansub odam, deb hisoblaydilar.

1927 yilda Pekin shahri yaqinidagi Chjoukoutyan degan joydan sinantrop suyagi qoldiqlari topiladi. Bu manzilgoh kanadalik olim D.Blek tomonidan o'rganilgan. 25-30 m qalinlikdagi madaniy qatlamga ega yodgorlikda arxantrop bo'lib, ular pitekantroplarga nisbatan ancha rivojlangan, bir necha mingyillar davomida shu yerda yashashgan va buni ular yasagan ov va mehnat qurollari, ulardagi o'zgaruvchanlik hamda bir necha o'n metrlik kul qatlami ham buni tasdiqlaydi (mongoloid irqiga xos xususiyatlar mavjud).

Har bir fan tarmog'i mazkur fanning asosiy tadqiqot predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va ularni tizimlashtirish hamda klassifikatsiyalashdan boshlanadi. Lekin klassifikatsiyalash barcha uchun umumiy va turli maqsadlarni o'zida qamrab olgan bo'lmog'i hamda o'z tabiatiga klassifikatsiya qilinayotgan ob'ektni tuzilishini to'liq aks ettirgan holda mavjud printsiplar va dasturlarga mos kelmog'i zarur. Odatda klassifikatsiyalash natijasida qator yangi qonunlari va qonuniyatlar, nazariyalar va kontseptsiyalari yaratiladi. Bu ma'noda etnologiya fani ham mazkur mulohazalardan mustasno emas.

Dunyo xalqlarini ma'lum bir tarzda etnik tasniflashni talab qilganligi bois yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, dunyo xalqlarining geografik joylashuviga, antropologik tuzilishiga, til guruhiga hamda xo'jalik an'analariga ko'ra tasniflanadi.

XIX asr oxirida nimis olimlari (L. Frobenius, F. Grebner va boshqalar) va keyinchalik amerikalik antropologlar (K. Uissler, A. Kryober) dunyo mintaqalarini madaniy rivojlanish «madaniy mintaqalar», rayonlarga bo'lishni ishlab chiqqanlar. Sobiq sovet ittifoqi etnografiyasida ushbu ilmiy an'ana «xo'jalik madaniy tiplari» «tarixiy-madaniy viloyatlar» kategoriyalarida o'z aksini topgan. Bu borada mashhur rus etnograflari V.G. Bogoraz, S.P. Tolstov, M.G. Levin, N.N. Cheboksarov ishlarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. To'g'ri bugungi kunda bunday tasniflanish ayrim g'arb olimlari tomonidan jiddiy tanqid ostiga olinishiga qaramay hali hanuz ilm olamida butkul o'z mavqeini yo'qotgan deb aytib bo'lmaydi. Shu bois biz quyida ushbu tasniflashga biroz kengroq to'xtalib o'tdik.

Geografik klassifikatsiya xalqlarning bevosita yashayotgan mintaqalari bilan bog'liq tarzda yaratiladi. Geografik tasniflash natijasida turli xalqlar yashagan shartli geografik regionlar nomi paydo bo'ladi. Xuddi shunday tarzda «O'rta Osiyo xalqlari», «Sharqiy Yevropa xalqlari» kabi nomlar paydo bo'lgan. Bunday tarzda xalqlarni geografik umumlashtirib tasniflash faqatgina geografik tasniflash uslublari, etnik printsiplar bilan ma'lum ma'noda mos kelgan taqdirdagina bajariladi. Xalqlarni bu tarzda tasniflash printsiplari garchi fanda keng qo'llanilishiga qaramay, xalqlarning kelib chiqishi, ularning shakllanishi, xo'jalik yuritish an'analari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti muammolariga javob bermaydi. Biroq xalqlarni turli xududlar bo'yicha umumlashtirish va etnoslarni turli hududlar bo'yicha taqsimlagan holda tasniflash imkonini beradi. Shu bois bunday tasniflash yordamchi xususiyat kasb etadi va xalqlarni guruhlashtirishdagi boshqa me'yorlar bilan mos kelgandagina, ya'ni boshqacha tarzda aytganda katta-katta mintaqalar misolidagina qo'llaniladi. Xalqlarni klassifikatsiyalash ichki viloyatlardan voz kechishni talab qiladi.

Yer sharidagi barcha mamlakatlar tomonidan qabul qilingan yagona geografik tasniflash mavjud emas. Bu borada eng sodda bo'linish tarzida Avstraliya va Okeaniya xalqlari, Osiyo xalqlari, Amerika xalqlari, Afrika xalqlari, Yevropa xalqlari deb bo'linishni keltirishimiz mumkin.

Etnografiya xalqlar xakidagi fan bulib, u xalqni urganuvchi, ta'riflovchi fan yoki xalqshunoslik fani deb xam yuritiladi. Etno-grafiya suzi lotin tilidan olingan bulib, "Etnos"-xalq, "Grafos"- ta'rif degan ma'noni anglatadi.

Etnografiya- dunyo xalqlarining madaniyatini, maishiy xayoti-ni, kelib chikishi va madaniyat tarixini, uzaro aloka va munosabat-larini urganuvchi tarixiy fandir.

Etnografiya tarixiy fanlar, ayniksa arxeologiya, antropolo-giya, geografiya va tilshunoslik bilan bevosita boglikdir. Bundan tashkari u yozma mmanbalar, geografik xujjatlar, moddiy va mai-shiy materiallarda xam foydalanadi.

Mana shu xususiyatlari bilan etnografiya boshka fanlardan fark kiladi.

Inson akl-zakovati va kuli bilan yaratilgan xamma narsa madaniyat etnografiyasidir. Madaniyat xam uz navbatida ikkiga bu-linadi:

- 1.Moddiy madaniyat;
2. Ma'naviy madaniyat.

Etnografiya fakat moddiy madaniyat bilan ma'naviy maaniyat urtasidagi asosiy farqlarnigina urganib kolmay, balki ular urta-sidagi uxshashlik, umumiy konuniyatlarni xam urganadi.

Bu konuniyatlarni tadkik kilish esa, insoniyatning umumiy tarixiy tarakkiyoti konunlarini bilish imkoniyatini beradi. Etnograflar oldida turgan keng va xilma-xil masalalar etnog-rafiya fanini boshka yakin fan soxalari bilan uzviy boglabgina kolmay, uning uzini xam, bir kator ixtisoslarga bulib yubordi. Bular:

Xujalik va texnika tarixi;

Xalk memorchiligi va tasviriy san'at:

Urf-odat va marosimlar;

Etnik oilaviy tuzum,

Kiyim-kechak va uy-ruzgor;

Ijtimoiy va maishiy turmush ixtisoslari va xokazolar.

Odatda etnografiya ayrim kit'alar, mamlakatlar yoki xalq-larga karab, urf-odatlari xakida ma'lumot beradi.

Uzbek xalqining kelib chikishi xakidaxar xil chalkash fikr-lar ilgari surib kelinayotgan edi. Kachonki, O'zbekiston Respubli-kasi mustakillikka erishgandan sung bu murakkab va chalkash masa-lani yechimiga uzbekcha, keng va xakikiy baxo berish imkoniyati paydo buldi.

Sobik sovet davrida ayrim tadkikotchilar uzbek xalqining kelib chikishi tarixini shayboniylar davri istilosi bilan boglay-dilar.

Ma'lumki Dashti Kipchokda tashkil topgan Ok urda va Shay-bon ulusida, ya'ni Sirdaryo, Orol dengizi va Volga buylari orali-gidagi keng xududda kuchib yurgan, XIV asrning urtalaridan bosh-lab uzbeklar deb yuritilayotgan turk-mugul kabilalari bilan boglab notugri xulosaga kelindi.

Masalan: S. A. Tokarev "Osnov Etnografii" (M. 1968) va I. Jabborov "Uzbek xalq etnografiyasi" ("FAN" nashriyoti) asarlarida shu fikr ilgari suriladi.

S. L. Tolstov, A. Yu. Yakubovskiy, Ya. G. Gulomov, M. G. Vaxobov va boshkalar uzbek xalqining boshlangich yadrosi Urta Osi-yoda kuldorlik davrida yashagan qadimgi sugdiylar, xorazmiylar, sak kabilalari va urug aymoglarini unutgan, keyinrok kuchmanchilikdan dexkonchlikka utib turkiy tilda suzlashuvchi chigil, karluk yagmo, argun kabi guruxlardan iborat ekanligini, uzbek elatining asosi XI-XII asrlarda tugaganligini va XVI asr boshlarida paydo bulgan kuchmanchi Shayboniy uzbeklarining uzbek xalqining qadimgi yadro-siga aralashib ketib, fakat uz nominigina berganligini kuchli da-lillar, fakt va materiallar bilan isbotlab berganlar.

Kadimgi Turon yerlarida yashagan utrok dexkon va kuchmanchi chorvador axolining asrlar davomida yakindan olib borgan iktiso-diy va etnik alokalari natijasida bu xududda dastavval qadimiy yozma manbalarda Sugd, Xorazm, Parkana, Shak va Toxar nomlari ostida tilga olingan kato voxa xalqlari tashkil topadi.

Miloddan avvalgi I mingyillikning urtalarida Turkiy kabi-lalarning janub tomon boshlagan siljishlari milod busagasida Yu-echji va xunnlarning kirib kelishi bilan yanada kuchaydi.

UzFAning Tarix va Arxeolgiya institutlari tomonidan uyush-tirilgan kup yillik samarali ishlari natijasida uzbeklarning avlod ajdodlari qadimdan utrok, yirik sugorish ishlariga asoslangan, dexkonchilikka mustakil, uziga xos yuksak madaniyatga ega bulganligi isbotlandi.

Bu xolat Urta Osiyo xalqlari guyo tarixiy xalq emas, ularning madaniyati Eron va boshka mamlakatlarnin madaniyatiga tobe, degan xar-xil da'volarni fosh kildi va puchga chikardi.

Xorazmda, Chirchikrabod, Botishmulla, Kuykirilgankal'a, Tuprokkal'a kabi yodgorliklardan kazib topilgan ajoyib arxitek-tura, san'at a yozuv durdonalari, Bolaliktepa va Panjkentda kashf etilgan xar-xil marosimlarni tasvirlovchi rang-barang rasmlar va Varaxshaning guzal chang xaykali va bezaklari butun antik davr ichida kurilgan xashamatli shaxar va kal'alar dabdabali sugorish inshootlari, bepoyon ekinzorlar uzbek va boshka Urta Osiyo xalqla-rining uzok utmishda nixoyatda zur iktisodiy va madaniy tarak-kiyotga ega ekanligini yakkol kursatib turibdi.

VII-VIII asrlarda Turkiy axolining katta qismi Yettisuv, Shosh xamda Fargona vodiylarida, kamrok qismi Zarafshon va Kash-kadaryo voxalarida yashar edi. Ular turkiylar tilini kabul kilgan tub joy axolidan xamda bu yerga kelib urnashgan kupgina turkiy ka-bila va uruglardan iborat edi. Ayrim Sugdiy xujjatlarda kelti-rilgan ma'lumotlarga karaganda turkiy axoli urnashgan bu o'lka VII asrdan boshlab, Turkiston nomi bilan atala boshlagan.

Ayni zamonda Yettisuvda urnashib kolgan Sugdiylarning so-ni xam anchagina edi. Ular bu yerga asosan xalqaro savdoning kenga-yishi va bu savdodan manfaatdor Sugdning V-VII asrlada olib bor-gan xarbiy yurishlari okibatida kelib kolgan edilar.

Sugdlnarin savdo va xunarmandchilik manzillari Talos va Chu vodiylarida Chimkentdan to ulug Xitoy devorigacha bulgan yerlarda joylashgan.

Uzok asrlar davomida shakklanib kelgan yukori darajadagi madaniy zamin bulmaganida ilk feodalizm davrida va IX- XII asrlarda butun Urta Osiyo shu jumladan O'zbekistonda fan va madaniyat gurkirab usib, jaxonga Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Muxammad ibn Muso Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy kabi fanning kup soxalarini mukammal egallagan ulugvor siymo-larni yetkazib berishi mumkin emas edi.

Maxmud Koshgariyning "Devoni lugotit-turk" nomli noyob asarida uzbek xalqining eng qadimgi turkiy tilda gapiruvchi aj-dodlarimizdan biri bulgan chigil kabilalari Iskandar Zo'lkarnayn yurish kilgan davridayok kup nufuzli etnografik guruxlardan xisob-langani xakida ma'lumot beradi.

XI asrning yetuk shoiri va olimi Yusuf Xos Xojib tomonidan yaratilgan uz davrinig zur badiiy asari xisoblangan "Kutadgu bilik" ning ana shu chigil kabilalari tili asosida yozilganini va bunday ajoyib asar agar uzok asrlar davomida iktisodiy, madaniy birlik negizida dunyoga kelgan umumiy bir til bulmagan xolda paydo bula olmasligini xam e'tiborga olsak, u vaktda uzbek xalqi-ning tili nixoyatda uzok tarixga ega ekanligiga ishonchimiz komil buladi.

Maxmud Koshgariyning aytishicha, ilk urta asrlarda xam turk-cha xam Sugdiycha suzlaydigan, ya'ni ikki tili bulgan va fakat turk-cha gapiradigan kishilarning juda kupligini, lekin

fakat sugdcha suzlaydigan kishilarning mutlako yukligini xam turkiy tillar es-ki tillarni sikib chikarganligini aytadi. Demak, uzbek xalqi er. avv. rok, muayyan bir xududda uziga xos moddiy va ma'naviy birlik yarata boshlab asta-sekin til jixatidan xam umumiylikka erisha boshlagan. Natijada XI - XII asrlarga kelib, uzbek xalqi asosan shakllanadi.

Uzbek xalqining avlod-ajdodlari tugrisidagi ba'zi ma'lu-motlar qadimgi yozma manbalarda xam uchraydi.

Kadimi Urta Osiyo xalqlari xakidagi ma'lumotlar bilan ka-dimgi Yunonlar er. avv. VII asrda Prokonneslik Kaistrobiy ugli Aristey davridan tanishadilar. Aristeyning aytishicha. u sirli sa-bablarga kura Prokonnesni tashlab uzok o'lkalarga Issedomlar yasha-gan joylarga sayoxatga junagan. Aristeyning qadimgi Ur tugrisi-dagi ma'lumotlari yozma adabiyot tarixidagi eng qadimiysidir.

Eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda shakllanib, rivoj topgan Yunon lirikasida ayniksa Aliman va Timdar asarlarida xam Urta Osiyo xalqlari xakida ma'lumotlar bor.

Esxil Baktriyalik ba'zi lashkarboshilar nomlarini keltira-di: Takagan, Artam, Farnux, Parf, Anxar, Arsam, Sevalis va bosh-kalar.

Bundan tashkari qadimgi Xorazmiylar, Sugdiylar va Shak yoki Massagetlar xakidagi ayrim ma'lumotlar antik davr mualliflari Miletik Gekatiy, Strabon, Gerodot, Arrian va Ptolomey asarlari-da qadimgi Farshlar yozuvlari va butun Urta Sharkda tarkalgan mu-kaddas kitob "Avesto" da mavjud.

Eramizdan oldingi II asrlardagiXitoy elchisi va sayyoxi Chji-Tszyanning Dovon va Kanguy davlatlari xakida koldirgan ba'zi ma'lumotlari xam etnografik jixatdan diqqatga sazovor.

Arab istilosidan keyingi asrga oid etnografik ma'lumotlar maxalliy va arab sayyoxlarinin asarlarida mavjud.

IX- XII asr mualliflaridan Ibn Xurzodbiy, Al- Balxiy, Al-Istaxriy, Ibn-Xavkal, Ma'sudiy, Yokut singari yirik biograf va sayoxatchilar, maxalliy mualliflardan faylasuf, musikashunos Abu Nasr Forobiy, mashxur entsiklopedist olim Abu Rayxon Beruniy va buyuk tabib Abu Ali ibn Sino, etnograf, biograf, tarixchi olim Abu Sa'd Abdusharm ibn Muxammad Somoniy xamda noma'lum muallif yaratgan "Xudud ul-olam" nomli asarlarda O'zbekiston xududida usha davrda yashagan axli tugrisida ba'za etnografik lavxalar keltirilgan.

CHingizxon bilan Yevropa monarxlari va Rim papasi urtasida savdo, siyosiy va diplomatik munosabatlar urnatishga kizikishdi. Birinchi bulib papa Innokentiy IV 1245 yilda Frantsmyalik Ioan Plano Karpini boshchiligida monarxlardan iborat elchilarini yubordi.

Xuddi shu maksadda va shu yul bilan 1249-51 yillarda safar kilgan Plano Karpini vatandoshi Vilgelm Ruberkovich asarida va Venetsiyalik Marko Polo asarlarida xam Urta Osiyo o'lkalari xakida etnografik ma'lumotlar keltirilgan.

Kudratli va o'lkan davlat tashkil kilgan Amir Tumor va uning vorislari xukmronlik kilgan davrda Urta Osiyo shu jumla-dan, O'zbekiston yirik madaniyat markaziga aylanadi va uning bosh-ka mamlakatlar bilan xar tomonlama alokalari kuchaydi. Bu davrga oid kizikarli ba'zi etnografik ma'lumotlarni ispan elchisi ritsar Ryu Gonzales de Klavixoning asarida, Nizomiddin

Shomiy, Abdurazzok Samarkandiy va boshkalarning asarlarida uchratish mumkin. Yirik davlat arbobi, sarkarda, shoir Z. M. Boburning “Boburnoma” asarida xam muhim etnografik ma’lumotlar kuplab keltiriladi. XVI asr boshlarida Urta Osiyoni bosib olgan kuchmanchi uzbeklarning etnik tarkibi, joylashgan xududi, turmushi va urf-odatlariga xakida Ma’sud ibn Kuxistoniyning “Tarixi Abulxayrxoniy”, Kamoliddin Binoiyning “SHayboniynoma” va Abulxayr Fayzullox Ruzbexxonning “Mexmonnomai Buxoro” nomli asarida kimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Binoiyning “SHayboniynoma” asari 1450-1505 yillar ichida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni kiska va lekin anik bayon etgan. U muhim geografik ma’lumotlar, ya’ni Sirdaryoning urta oki-mida joylashgan Sayram, Signok, Arnuk, Utror, Turkiston, Uzgan, Okkurgon va Xorazmga tobe shaxarlardan Urganch, Buldumsoz, Adok va boshkalar xakida xam ma’lumotlar beradi.

Masalan: kuchmanchi uzbek kabilalari va ularning ijtimoiy-siyosiy xayotdagi urni uchraydi.

Urta Osiyo va Kozogistonning XV asrning ikkinchi yarmida va XVI asrning boshlaridagi tarixini o’rganishda Ruzbexxonning “Mexmonnomai Buxoro” asari zur kimmatga ega. Asarning biz uchun kiymati shundaki, unda Dashti Kipchok, Turkiston va Kozok ulusining geografik xolati, uzbek va kozoklarning kelib chikishi, etnik tarkibi, turish-turmushi, urf-odati, shuningdek zodagonlar-ning xujalikda kul mexnatidan foydalanish xollari xakida beni-xoya kimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Urta Osiyo uzbek xonlari paydo bulgandan keyin, Markazlash-gan Rus davlati bilan ular orasida muntazam ravishda savdo-sotik, diplomatik munosabatlar urnatila boshlaydi. 1558 yilda Xitoyga Urta Osiyo orkali savdo yulini aniklash maksadida Moskvaga kelgan Angliya savdo kompanisining vakili Antoni Jenkinson boshlab berdi. U uz maksadiga erisha olmagan bulsada, bu o’lkalar xakida anchagina ma’lumotlar tuplab berdi. Buxoroga rus elchisi bulib kelgan, Florio Beneveni Xivaga xam borib, shu mamlakatlar tugrsida kimmatli geografik ma’lumotlar olib kelgan. Kuxna Xorazm axolisining XVIII asr urtalaridagi turmushi tugrsidagi muhim etnografki ma’lumotlarni 1740-43 yillarda Dmitriy Gla-dishev va Ivan Shurikin boshchiligidagi Orol dengizi va Xiva ekspeditsiyasi xamda 1753 yilda Samara savdogari Danil Rukov-skiyning Xivaga kilgan sayoxati davrida tuplangan meteriallardan olish mumkin.

1774 yilda Orenburg chullarida kozoklar tomonidan asirga olingan rus unter-ofitseri Filip Yefrimov asirlikdan kochib, Ku-kon, Margilon, Koshgar, Yorkent, Tibet, Xindiston va Angliya orka-li 1782 yilda Rossiyaga kaytib keladi va kurgan bilganlarini yozib koldiradi. 1781 yilda Buxoroga elchi bulib kelgan Lindiyor Dof va Bekchurin va 1794-98 yillarda Buxoroga sayoxat kilgan T. Burnashev-ning xikoyalari xam keltirilgan. Shu davrdagi Xiva xoniligiga oid tarixiy va etnografik ma’lumotlar xonning taklifi bilan Xora-zmga kelgan kuz doktori mashxur Blankennagenning yozib koldirgan xotiralari mavjud.

Uzbek xalq etnografiyasigi oid materiallar tuplami davri XIX asrda boshlanadi. XIX asrning birinchi yarmidan N. N. Murav-yov, A.F. Negriy, N. V. Xanikov, P. I. Danilevskiylar

utkazgan ish-lar Urta Osiyo xalqlari shu jumladan, uzbeklar etnografiyasini o'rganishdagi dastlabki ilmiy kadamlar buldi.

1819-20 yillarda Xiva xonligiga sayoxat qilgan kapitan N. N. Muravyov O'zbekiston SSR taassurotlarini asar kilib chikaradi.

N. N. Muravyov asarining ba'zi boblarida bevosita uzbek-larning tabiati, diniy e'tikodlari, urf-odatlari, ma'rifati, ki-yim-kechagi, uy-ruzgorlari, urug-aymogi, kabi sof etnografik ma'lumotlar keltirilgan. Uning aytishicha, Buxoro tomonidan kelgan uzbeklar asosan 4 toifadan: kiyot -kungirot - uygur-nayman, kangli-kipchok, nukus mangitdan iborat: xar 1 toifa mustakil xokim-inokga ega, ammo ularning eng kattasi kiyot-kungirot-inokidir.

1820-yilda Buxoroga junatilgan A. F. Negri boshchiligidagi diplomatik missiya katnashchilaridan E. A. Everslin, X. Pander, P. Yakovlev, Budrin va polkovnik P. Meyendorflarning kitob va xotiralari boy tarixiy etnografik ma'lumotlarga ega. turli tillarda tashkil kilingan G. Meyendorfning "Orenburgdan Buxoro-ga sayoxat" nomli kitobida Buxoro xonligining geografik urni, ijtimoiy iktisodiy axvoli, davlat tuzilishi va axolisi va mashgu-lotlari, kishlok xujaligi sugorilishi sistemasi, xunarmandchili-gi, ichki va tashki savdo, oila va xotin kizlarning turmushi xakida ma'lumotlar keltirilgan. bu soxada ayniksa, 1833-1841 yillarda Orenburg gubernatorining maxsus topshirigiga binoan ishlagan V. M. Dollning berilgan ma'lumotlari diqqatga sazovordir.

1840-1850 yillar ichida Kozogiston va Urta Osiyo xamkorligi etnografiyasini ilmiy jixatdan o'rganishda aka-uka Nikolay va Yakov Xanikovlarning xizmati katta bulgan.

Yakov Xanikovning 1851 yilda nashr kilingan «Orol dengizi va Xiva xonligi kartasiga muxokama asarida etnografiyaga aloxi-da e'tibor berilgan. N. Xanikov 1843 yilda Buxoro xonligi xaki-dagi ildmiy asarni nashr kildirishga muyassar buladi.

Etnografiyaga oid muhim ma'lumotlar 1843 yilda Xiva xon-ligiga diplomatiya missiya tartibida kelgan polkovnik G. N. Doni-levskiy, O. R. N. Baziner asarlarida xam yuklantirilgan.

Usha yillarda atokli olim V.V.Grigorev Orenburgda yashagan va u Rossiyada birinchi bulib shark xalqlari tarixi turini ukita boshladi. uning 200 dan ortik ilmiy ishlari orasida Urta Osiyo xamkorligi jumladan uzbeklarga tegishli asarlari xam mavjud.

1851 yilda Orenburgga kelib sayoxat qilgan V. V. Velyalenov Zukkov xam uzbek xalqlariga oid bir kancha kizikarli tarixiy asarlar yaratgan.

1858 yilda Lomonovski N. L. Ignatev boshchiligidagi Xiva va Buxoroga yuborilgan yirik diplomatik missiya xam ancha samarli ish olib borgan. Turk tillarini yaxshi bilgan, mashxur Vengr shark-shunos olimi Xerman Vamberi 1863 yili darvesh libosini kiyib, savdo karvoni bilan Xiva, Buxoro, Samarkand va boshka Urta Shark mamklakatlariga sayoxat kildi. Bu sayyoxning Urta Osiyo xakidagi yoz-gan asarlarida maxalliy axoli, shu jumladan uzbek xalqi enogra-fiyasiga oid kizikarli ma'lumotlar bor. U uzbek uruglari xakida gapirib, birinchi bulib uzbek suzining kelib chikishi xakida mulo-xaza yuritadi. Kuk Urda shaxrida Volga bilan Orol dkengizi orasidagi yashovchi turk mugul kabilalarida juji sulolasidan tuk-kizинchi xukmdor bulgan Uzbekxoon misoliga nisbat berib, uzlari-ga bir siyosiy kushma nom, uzbek nomi bilan kabul kilganlar.

Asar muallifi 32 uzbek kabilalarining ruyxatini berdi va ularning kiyim-kechaklari , taomlari, uyin va musika asboblari, urf-odatlar va diniy marosimlariturgisida xikoya kiladi. XVI-XIX asr urtalarigacha bulgan davr ichida maxalliy mualliflar tomonidan yaratilgan tarixiy asrlarda xam ba‘zi bir muhim etnografik lavxalar bor. Iste‘dodli shoir va musikashunos Xofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asari Urta Osiyo , Kozogiston shuningdek,qisman Afgoniston va Eronning XVI-asrdagi ijtimoiy -siyosiy tarixini uz ichiga oladi. Asarda etnografik ma‘lumotlarga xam boydir. M: uzbek xalqi tarkibiga kirgan urug va kabilalar tugrisida ma‘lumot beradi.

Abulgozi ibn Muxammadxon Xorazmiyning bir kancha boy chet tillariga tarjima kilingan “SHajarai Turk“ va “SHajarai Tarokima” kabi asarlari mavjud.

Mashxur uzbek tarixchilari Shermuxammad Munis, Muxammad rizo Ogaxiy va Muxammad Yusuf Bayoniylarnining “Firdavsul-ikbol; Riyozut -davlat“ , “Zubdat ut-tavorix” nomli, «Gulshani davla», “SHamsul-ikbol”,”SHajarai Xorazmshohiy” kabi asrara-rida XVII-asrning II-yarmidan to XX-asr boshlarigacha Xorazm va kushni xududularida ruy bergan tarixiy voqealar yuksak maxorat bilan tasvirlandi. Uzining boy mazmuni, iktisodiy, ijtimoiy ma‘lumotlarining kupligi va rang-baranglagi bilan ajralib turgan bu tarixiy asarlar usha davrdagi uzbek xalqi etnogra-fiyasining o‘rganish uchun muhim manba bula oladi.

Uzbek xalqining etnografiyasini o‘rganish bilan shugullangan M. P. Ostraumov, M. S. Litoshin singari tatkitotchilar mustamlakachilik ma‘murlaring xizmatchilari bulib uz asarlarida chorizmning mustamlakachilik siyosatini targib kildilar. Birok ularning asarlarida xam shaxsiy jamoalarning turmushi, madaniy xayotiga doir faktlarga asoslangan bir kancha diqqatga sazovor materiallar uchraydi.

A. P. Fedchenko xam uz rafikasi bilan yurib, uzbek xalq etnografiyasiga oid juda kup ma‘lumotlar tuplagan va “Kukon xon-lari “ asarini yozgan. Etnografiya materiallarini keng ommaga yet-kazish va ularni saklab kolishda ilmiy jurnallar, statistik bosh-karmalarning spravochnik tuplamlari xamda “Turkestarskiy vedomosti“ gazetasining xizmatlari katta buldi.

SHunday kilib, XIX-asrning II-yarmi XX-asr boshlarida uzbek etnografiyasining o‘rganishda ilmiy jixatdan diqqatga sazovor bir kancha ishlar paydo bulib, juz‘yi tatkitotchi olim va o‘lkashu-noslar safi kengayidi. Ular uz asarlarida uzbek vaboshka Osiyo xalqlari ma‘naviy -va ma‘rifiy turmushining xususiyatlari , urf-odatlri, urug-aymoglari va kabilachilik tuzumi, diniy e‘tikodlari va boshka etnografik xususiyatlarini ta‘riflash bilan birga, ularning ma‘nosini ilmiy jixatdan sharxlashga intilganlar, lekin uz davrining xukmron ideallari ta‘sirida bulgan bu tatki-kodlar bir muncha nuksonlardan xoli emas, albatta.

Ijtimoiy masalalarni sharxlashda tatkitotchilarning ojiz-ligi, sub‘ektida irkiy kontsessiyalarning xukm surganligi ular-ning kup asarlarida xam uz asosini topgan.

1918 yilda tashkil kilingan Turkiston xalqi universitetida uzbek etnografiyasidan maxsus kursning ukitila boshlanishi Turkiston xududida etnografik tadkikotlar utkazishga katta e‘tibor berilayotganidan dalolat beradi.

30-yillarga kelib, atokli olimlardan S. P. Tolstov va L. P. Potopovlar uzbeklar va Urta Osiyo dagi boshka xalqlaring etnogra-fiyasini o‘rganish ishlarini jonlantirib yuboradi.

Xorazmda chorak asrdan xam kup vaktida ish olib borgan S. P. Tolstov raxbarligidagi arxeolog-etnograflarning kompleks ekspeditsiyasi O'zbekiston xalqlarining turmush va madaniyatini o'rganishda yangi saxifa ochdi. Bu ekspeditsiya, asosan qadimgi Xo-razm madaniyati yodgorliklarini o'rganish bilan birga Xorazm voxa-sidagi uzbeklarning etnografiyasini xam tekshirdi. II-jaxon urushidan keyingi davrda ekspeditsiya tarkibida ikki uzbek etnografiya otryadi tuzildi. Ular shimoliy uzbeklar etnografiyasi va janubiy uzbeklar etnografiyasi otryadi edi.

Xorazm ekspeditsiyasi O'zbekiston xududida yashovchi, lekin in-kilobdan ilgari butunlay unutilib kuygan korakalpok xalqlarini o'rganish soxasida xam katta ishlar kildi. Ekspeditsiyaning Kora-kalpogiston otryadiga atokli etnograf T. A. Jdanko raxbarlik kildi. Bu olim korakalpoklarning tarixiy etnografiyasiga bagishlangan ajoyib asar yozdi. Otryadda maxalliy etnograflardan S. Kamolov, Pusbergenov va Shelikenovlar ishtirok etdilar.

Atokli tarixchi-enograflar A. Yu. Yakubovskiy, A. A. Semyonov va P. P. Ivanovlar uzbek xalqining kelib chikishi va etniktarkibi masalalariga uzlarining chukur mazmunli asarlarida keng urin berganlar. Bu muhim masalalarni yoritishda R. G. Muminova va B. A. Axmedovlar xam ma'lum xissa kushganlar. Tarix va arxeologiya soxasida kilingan ilmiy ishlarda keng foydalangan. M. Vaxobov uzbek xalqi etnografiyasiga oid asarni yaratdi.

Milliy masala xardoim dolzarb bulib kelgan. Xar bir xalq nigmilliy shaklanishi, etnik umumiy ligi va xususiyalari, uzaroyakinlashuv ika bimasalalarni chukur tushunish uchun ayrim etnografik guruxlarni xartomonlamao'rganish zarur. Uzbeklar-ning ayrim kabilavauruglarini takikkilishda etnograflardan V. G. Mashkova, K. L. Zadxina, K. Shoniyozova, T. Fayzievlarning ilmiy ishlaridikkat gasazovordi.

O'zbekiston tarixiga oid kuptomli yirik ilmiy asarni etnografiya bagishlangan bulimlari fanning sunggi yutuklari asosida mutaxassist kiko chilar tomonidan yozilgan "Jaxon xalqlari" seriyasi dabo silib chikkan ikitomli "Urta Osiyova Kozogiston xalqlari" nomli monumental ilmiy asar deyarli butun etnografik tatkikotlarining yutuklarini uzidamujasam-lashtirgan. Asarning "Uzbeklar" nomli bobini yozish va taxrirkilishda maxalliy etnograflardan O. A. Suxareva, M. A. Bekjonova, I. Jabborov va boshkalarkatnashgan.

Uzbek xalqining etnografiyasini o'rganish mustakillik kulgakiritilgandan sung yangi boskichgakutarildi.

Vatanimizdavaxorijda e'tirof etilgan ilmiy anagako'ra antropologiya fan tarzida insoniyatning kelib chiqis tarixini, uning evolutsiyasi, irqlarning kelib chiqishini hamda turli xalqlarning morfologik va jismoniy xususiyatlarini o'rganadi. Antropologika tasniflashda turli etnik guruhlarning madaniy xususiyatlarini mas, balki biologik xususiyatlariga genetika qarindoshlik printsiplariga asosiy e'tibor qaratiladi. Biroq genetika loqadorlik printsiplari insonlarni ma'lum birtasni flargabo'lishimkonini bermaydi. Shu bois etnologiya turli xalqlar orasidagi qon-qarindoshlik aloqalarini tarixini tahlil etishda ko'plab uslublardan foydalaniladi. Ko'pincha etnologlar antropologik klassifikasiyaning asosini tashkil qiluvchi etnoslarning irqiy farqlarini asos qilib olishadi.

Insoniyatbiologiktuzilishjihatdanumumiylikkaegavayersharidagibarchainsonlarbirbiologi kturgamansubdir.

Lekindunyoningmavjudetnikmanzarasiturlimintaqalardayashayotganinsonlartanatuzilishi, ranggi, sochturi, yuz-qiyofasigako'ra rang-barang, ya'nikiantropologiktuzilishigako'raturli-tumanko'rinishgaega.Insonlarorasi dagio'zarofarqlixususiyatlarirqiyasni flashorqalitahlilqilinadi.I rqiya sniflashdains onningsochishakli, uchlamchisochqoplami, terituzilishi, sochningrangi, ko'zrangi, bo'yi, tananingproportsiyasi, tananing bosh qisminingtuzilishshakligako'rafarqlanadi. Umumanolgandairqlar deb genetikqon-qarindoshlilikmunosabatlariasosidatashqitanatuzilishigako'rao'xshashbo'lganxududiybirlashgan kishilargaaytiladi.

Antropologikjihatdanhozirgixalqlarnivatanimizvaxorijiyantropologiyafanidato'rttakattairqlarga-- negroid (afrikan), yevropoid (evroosiyo), mongoloid (osiyo-amerika) vaavtroloid (Okeaniya) irqlarigabo'linadi.

Ushbuirqlarningfarqlixususiyatlarisifatidaquyidagiirqiyalomatlarniko'rsatishmumkin.Yevropoidirqigamansubkishilarningterisioqyokibug'doyrang, sochlari turli-tumanto'g'rivato'lqinsimon, ko'pinchamayinbo'libo'sadivayuzhamdatanani junqoplaganbo'ladi. Burni tor, lablario'rtachayokikichikhajmdabo'ladi.Ko'zlariturli –tumanrangdava bosh miyasuyaklarihechqachonoldingabo'rtibchiqmaganbo'ladi.

Avstroloidlarterisiningrangi qoramtir, sochlariqorato'lqinsimon, jingalakvaqattiq, yonoqva bosh suyaklarioldingachiqqanbo'ladi, burunlarikatta, lablariqalinbo'ladi. Yuzlaridavatanasijundorbo'ladi.

Mongoloidlardaesaterirangisariqroq, yokito'qbug'doyrangbo'ladi, sochlariesato'g'rishaklda qattiqbo'ladi. Sochvako'zlarningrangi qorayokito'qjigarrangbo'ladi, erkaklardasoqolvamo'ylovbirozkechroqchiqadivako'pinchasiyrakbo'ladi. Yuzikengvayonoqchanog'iqattiqchiqadi, burunesaunchalikkattabo'lmaydi. Amerikaning mongoloid aholisidaterirangisariqrangdabo'ladi.

Negroidlarningsochiqora, timqorarangda, jingalakvako'pinchaqattiqhamdashakligako'rato'g'ribo'ladi.

Soqolvamo'ylovlarixuddimongoloidlarnikigao'xshashtarzdayomono'sadi.

Ko'zlariba'zidaqisiqbo'ladi.Burnilarining kengligi juda katta bo'lib, deyarli balandligi bilan teng bo'lgan. Yuzlari kichkina va tor ko'zlari esa yevropaliklarnikiga o'xshash keng ochiq bo'ladi.

Mazkur to'rtta katta irq taxminan 25 ta kichkina irqlar(ularni ba'zida etnogenetik shoxobchalar yoki lokal irqlar ham deb aytishadi) ga bo'linadi. Katta va kichkina irklar orasida oraliqdagi irqlar ham mavjud. Misol uchun, negroidlar va yevropoidlar orasida-efiopiyaaliklar va mulatlar; mongoloidlar va avstroloidlar orasida janubiy osiyo irqi – yaponlar va shu kabilarni ko'rsatish mumkin. Efiopiyaaliklarning yuzlari ularning qo'shnilari bo'lgan arablar bilan bir xil shaklda bo'lsada terilarining rangi qora, negroid irqi terisiga o'xshash o'ta yorqin emas. Yaponlarda bir vaqtini o'zida avstroloidlarga, mongoloidlarga va yevropoidlarga xos alomatlarni kuzatish mumkin.

Sayyoramizda yashovchi turli-tuman xalqlarni shakllanishida va ularni farqlashda til ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til birligiga qarab ayrim xalqlar, etnik guruhlar aniqlanibgina qolmay, ko'pincha til asosida nom ham beriladi. Dunyo xalqlarining til boyligi juda boy va o'z navbatida juda ham murakkab hisoblanadi. Biroq lingvistik bir qator kamchiliklardan ham xoli emas. Jumladan, lingvistik tahlil orqali bir necha tillarda so'zlashuvchi xalqlarni (misol uchun yahudiylarni), yoki oldingi tillaridan farqli tilda so'zlashuvchi xetnoslar (misol uchun irlandlarni)ni tasniflash me'yorlariga solish qiyindir. Shunga qaramay lingvistik klassifikatsiya-lashning ko'plab ijobiy jihatlari mavjud. Avvalo, bunday klassifikatsiyalashni qo'llash natijasida yoki umumiy kelib chiqishiga ega bo'lgan xalqlar yoki uzoq muddat doimiy madaniy-lingvistik aloqada bo'lgan xalqlar bir guruhga kiradi.

Lingvistik tasnif tarixiy-qiyosiy o'rganish orqali aniqlanadi. Qolaversa etnoslarning turli klassifikatsiyalari orasida etnosning tiliga qarab tasniflash muhim tasniflashlardan biri hisoblanadi. Chunki aynan lingvistik tasniflash orqali ma'lum bir xalqlarning etnik yaqinligi, u yoki bu madaniyatning umumiy asosga ega ekanligi borasida birmuncha aniq tasavvurlar beradi.

Dunyo xalqlari til birligiga ko'ra, boyligi va murakkabligiga ko'ra farqlanib turadi. Tadqiqotchi olimlar tomonidan yer sharida turli etnik guruhlar va jamoalar so'zlashuvchi 6 mingdan ortiq tillar mavjudligi aniqlangan. Sayyoramizdagi ayrim davlatlardagina (ko'plab Yevropa mamlakatlarida) bitta tilda gaplashishsa, ayrim mamlakatlarda (Nigeriya va Rossiyada) 100 dan ortiq tillarda so'zlashishadi. Hozirda ayrim tillar kelib chiqqan xududidan tashqaridagi keng hududlar bo'ylab yoyilgan. Bu borada misol uchun arab tilini olib ko'radigan bo'lsak, arab tili paydo bo'lgan vaqtda (VII asrdan oldin) undan faqat Arab yarim orolining janubidagina yashovchi qabilalar foydalangan bo'lsa, hozir bu tilda Shimoliy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyoda joylashgan juda ko'p xalqlar so'zlashadilar. Yoki ingliz tilini olsak, dastlab unda Britaniya orolining aholisi so'zlashgan bo'lsa, hozir Yevropa va Shimoliy Amerika aholisining beshdan bir qismi, Avstraliya va Yangi Zelandiya xalqlari asosan shu tilda so'zlashadilar. Asl vatani Pireniy yarim oroli bo'lgan ispan tili keyinchalik butun Lotin Amerikasiga tarqalgan.

Xalqlarni tilga qarab tasniflash mezonlari asosan ikki kriteriya-til va etnik mansublik printsiplariga asoslanadi. Umuman olganda til insoniyat madaniyatining asosini tashkil etadi. Chunki til aynan insonga xos maxsus ramzlar orqali ma'lumot uzatiladi. Tilning taraqqiyoti madaniyat taraqqiyoti bilan parallel tarzda rivojlanib borgan va yakunida inson shakllangan.

U yoki bu tillarning qon-qarindoshligi etnologiya uchun ushbu tillarda so'zlashuvchi madaniyatlarni va xalqlarning yaqinligini namoyon qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Dunyo xalqlari orasidagi turli til oilalari borasida tadqiqotchi olimlar orasida umumiy qarash mavjud emas. Biroq oxirgi yillardagi ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida dunyo xalqlari tillarini quyidagi til oilalariga bo'lish mumkin:

Jahon xalqlari tillarini klassifikatsiyalash borasida dunyo tilshunoslari tomonidan qator mulohazalar bildirilgan bo'lib, bunday tarzda klassifikatsiyalashni keng ilmiy jamoatchilik tomonidan to'la e'tirof etilgan qarash deb bo'lmaydi. Jumladan, hali hanuz barcha olimlar ham turkiy, mo'g'ul va tungus-manjur tillarini genetik umumiyligini tan olmaydilar. Koreys va yapon

tillarini izolyatsiyalashgan tillar deb hisoblovchilar ham bor. Shuningdek Afrika va Amerika xalqlari tillarini tasniflash borasida ham yakuniy umumiy xulosaga kelinmagan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998.
2. Karimov I.A. Yukcak ma'naviyat-engilmas kuch. T., 2008.
3. Karimov. I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., 2010 .
4. Nabiev A. Tarixiy o'lkashunoslik. — T., 1996.
5. Alekseev V.P., Askarov A.A., Xodjayov T.K. Istoricheskaya antropologiya. Sredney Azii. - T.: 1990.
6. Jabborov I. M. O'zbek xalqi etnografiyasi. — T., 1994.
7. Jabborov I. M. Jahon xalqlari etnografiyasi. - T., 1985.
8. Kabirov A., Sagdullaev A.S. O'rta Osiyo arxeologiyasi. - T., 1990.
9. Asanova G., Nabixanov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug'rofiyasi. — T., 1994.
10. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T., 1988.
11. Rustamov M. O'zbek etnografiyasi. — T., 1990
12. Xujayov T. Qadimgi ajdodlarimiz qiyofasi. — T., 1992
13. Annaev T.J., Shaydullaev Sh.B. Surxondaryo tarixidan lavhalar. Samarqand, 1997.
14. Xujayov T. Xujayova G. O'zbek xalqining antropologiyasi va etnik tarixi. — T., 1995.
15. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'zbekistan ilk yozma manbalarda. T., 1996.
16. www.natura.com
17. www.archaelogy.ru